



TRANSPLANTOLOGIYA

Abdumalikova G. N TDSI talabasi

Ilmiy rahbar: Siddiqov N.N

Annotatsiya: Transplantologiya qanday turlari mavjud va uning asosiy axloqiy muammolari

Kalit soʻzlar: Avtotransplantatsiya, allotransplantatsiya, ksenotransplantatsiya, donor, retsiyent, sunʼiy organ, “miya oʻlimi”.

Transplantologiya – tibbiyotning inson aʼzolarini koʻchirib oʻtkazishga oid muammolarini oʻrganuvchi boʻlimi boʻlib, sunʼiy organlar yaratish bilan ham shugʻullanadi.

Transplantologiyaning qanday yoʻnalishlari mavjud?

Ksenotransplantatsiya – organlar yoki toʻqimalarning bir biologik turdan boshqasiga transplantatsiya qilinishi(masalan, hayvondan odamga);

Allotransplantatsiya – transplantatsiyaning bu turida donor sifatida genetik va immunologik jihatdan begona inson ishtirok etadi(bir tur ichida);

Avtotransplantatsiya – donor va retsiyent(yaʼni oluvchi va beruvchi) bir insonning oʻzi boʻladi(masalan, tananing maʼlum qismidagi teri zarur joyga koʻchiriladi);

Sunʼiy organlar- garchi dastlabki qadamlar endi qoʻyilayotgan boʻlsa ham, bu yoʻnalish ham eng istiqbolli hisoblanadi;

Oʻzak hujayralardan turli aʼzolari yetishtirish.

Bugungi kunda insonning qaysi aʼzolarini koʻchirib oʻtkazish mumkin?

Transplantologiya buyrakni koʻchirib oʻtkazishdan boshlangan boʻlsa, bugungi kunda transplantolog vrachlar hayot uchun muhim boʻlgan barcha organlar, chunonchi: yurak, jigar, oʻpka, oshqozonosti bezini almashtirishga qodirlar. Ilgari rad etish reaksiyasi natijasida bemorlar operatsiyadan keyin bir necha hafta yoki oy oʻtgach, vafot etgan va bu transplantologiya yoʻlidagi oʻtib boʻlmas toʻsiq boʻlib tuyulgan boʻlsa, bugungi kunda butun jahon mediklarining saʼy-harakatlari natijasida rad etish reaksiyasini yengishga muvaffaq boʻlinmoqda. Rad etish reaksiyasini jiddiy nojoʻya taʼsirsiz neytrallashtiruvchi yangi-yangi preparatlar paydo boʻlmoqda. Bu nafaqat organlarni, balki, ayrim toʻqimalar va ayrim hujayralarni, xususan, odam yoki hayvonning oshqozonosti bezi hujayralarini(qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlarga) koʻchirib oʻtkazishga imkon bermoqda.

Transplantologiya muammolari nimadan iborat?

Transplantologiya muammolari koʻchirib oʻtkazish uchun organlar tirik odam yoki murdadan olinganiga qarab farqlanadi:



Tirik donordan buyrakni ko'chirib o'tkazish transplantologiyaning amaliy tibbiyotdan o'rin olgan birinchi yo'nalishi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u buyrak faoliyati davolab b'lmaydigan darajada buzilgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishning butun dunyoda jadal sur'atlarda rivojlanayotgan yo'nalishidir. Buyrakni ko'chirib o'tkazish nafaqat yuz minglab insonlar hayotini qutqarib qoldi, balki ularga yuksak darajadagi hayot sifatini ham ta'minladi. Buyrakdan tashqari tirik donordan jigar bo'lagi, ilik va hokazolar ko'chirib o'tkaziladi, bu aksariyat hollarda bemor hayotini saqlab qoluvchi davolash usuli hisoblanadi. Biroq bunda bir qancha axloqiy muammolar vujudga keladi.

Tirik donordan organi ko'chirib o'tkazish uning hayotiga jiddiy xavf tug'diradi. Birinchidan, bu jarrohlik operatsiyasini o'tkazish bilan bog'liq xavf, u har qanday bemor uchun jiddiy psixofiziologik jarohat hisoblanadi. Adabiyotlarda donordan buyrak olish jarayonida va undan keyin jiddiy asoratlari qolgan (hatto o'lim bilan tugagan) holler tavsiflangan. Ikkinchidan, juft organlarning biridan yoki yakka organing bir qismidan ajragan donor nohush tashqi ta'sirlarga o'ta sezuvchan bo'lib qoladiki, bu patologiyaning har xil shakllari rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Bu muammoni qanday hal qilish mumkin degan savol tug'iladi. Bu muammoni yengillashtirish uchun tibbiy sug'urta yo'li bilan donor manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish o'rinli bo'ladi. Bunda ixtiyoriylik va donor bilan bemor qarindoshligi ham ular o'rtasida nizo chiqish ehtimolini istisno etmasligini hisobga olish lozim. Shu bois o'z yaqiniga ixtiyoriy asosda organini berish taraflarning burchlari va majburiyatlari belgilangan holda yuridik jihatdan rasmiylashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni vaqtda, organing ilonishi sog'ligiga jiddiy ziyon yetkazishi mumkinligi aniq bo'lgan odam o'z organidan ixtiyoriy ravishda voz kechishiga ham yo'l qo'yish yaramaydi. Masalan, o'z farzandini yaxshi ko'radigan ota yoki ona unga jufti bo'lmagan hayot uchun muhim organini berib, o'z organini qurbon qilishga haqli emas

Shu nuqta'I nazardan donorlik ixtiyoriy, ongli va beg'araz bo'lishi lozim. Bu prinsiplar bajariladigan holat quyidagicha:

Donorga nisbatan qarindoshlik, ma'muriy, moliyaviy yoki boshqa omillarga asoslangan, majburlov qo'llanmagan holda **ixtiyoriylik** deb atash mumkin.

Altruizm donor va bemor o'rtasidagi munosabatlarda tijorat bitimi yoki oldi-sotdi shartnomasining yo'qligini nazarda tutadi (**beg'araz**)

O'z organini **ongli ravishda** berish ehtimol tutilgan donor o'z sog'lig'I va ijtimoiy holati, o'z organi yoki uning bir qismini berishi unga qanday ta'sir etishi haqida vrachdan to'liq axborot olishiga asoslanadi.

Ko'chirib o'tkazish uchun organlar manbai sifatida murdadan foydalanish bir qancha murakkab axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Jahondagi barcha dinlar o'lgan odam tanasiga ziyon yetkazishni ta'qiqlaydi, uni avaylash, unga hurmat bilan munosabatda bo'lishni buyuradi. Dunyoviy nuqta'i nazardan inson o'limi uning tanasiga bo'lgan huquqini bekor qilmaydi. Vasiyatnoma o'z xohish-irodasini ifodalashning alohida shakli



bo'lib, u inson hayotini o'limdan ajratuvchi chegaradan o'tadi. Marhumning tanasini har qanday tahqirlash uning xotirasiga hurmatsizlik sifatida qoralanadi. Boshqacha aytganda, o'lik tana diniy ong uchun ham, dunyoviy ong uchun ham alohida axloqiy maqomga ega bo'ladi va u bilan munosabatda bo'lishni tartibga soluvchi muayyan normalarni nazarda tutadi.

Murdadan organlarni ko'chirib o'tkazishda yuzaga keladigan muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) murdadan organlar olishning axloqiy muammolari;
- 2) transplantologiyaning taqchil resurslarini potensial bemorlar o'rtasida odilona taqsimlash muammosi;
- 3) transplantologiya amaliyotida inson organlari va to'qimalari bilan savdo qilishning axloqiy muammolari.

Miya o'limi nima?

Miya o'limi konsepsiyasi nevrologiyada transplantologiya maqsadlari va ehtiyojlaridan qat'ii nazar ishlab chiqqan edi. Ammo o'limning an'anaviy yurak va o'pka faoliyati bilan bog'liq mezonlaridan farqli o'laroq, miya o'limi konsepsiyasi aynan, transplantologlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Murdadan organlarni olishning 3 turi mavjud bo'lib, ular har xil axloqiy mazmunga ega:

O'zboshimchalik bilan olish;

Rozilik preziumsiyasiga asoslangan olish;

Xabardorlikka asoslangan rozilik mexanizmlari yordamida olish.

O'zboshimchalik bilan olish SSSRda amalga oshirilgan, hozirgi vaqtda Rossiyada ham ba'zan amalga oshirilmoqda. Bunda shakllangan amaliyotga ko'ra hokimiyat idoralari vafot etgan odam tanasidan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin. Xususan, ular sog'liqni saqlash xizmatlariga murdalarni yorish, ilmiy va boshqa manipulyatsiyalar uchun ularning organlarini olish, murdaning fiziologik suyuqliklari va to'qimalaridan turli maqsadlarda foydalanish vakolatini beradi. Ayni holda o'lgan odamning tanasi mediklar jamoat manfaati yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan davlat mulki sifatida qaraladi. Bu yerda utilitaristik axloqning umummanfaatlariga xizmat qiluvchi har qanday amal axloqiy jihatdan to'g'ridir, degan qoida amal qiladi.

Ksenotransplantatsiyaning axloqiy muammolari nimalardan iborat?

Hayvon qonini odamga quyish va uning organlarini odamga ko'chirib o'tkazishga urinishlar uzoq tarixga ega. Odam donor organlari va to'qimalari taqchilligining oshishi ksenotransplantatsiyaga jamoatchilikning qiziqishini kuchaytirmoqda. Organlarga talab yiliga taxminan 15% ga oshmoqda. Insonga genetik jihatdan primatlar yaqin turadi. Biroq,



ulardan organlar donori sifatida foydalanish hayvonlar huquqlarining himoyachilarida katta e'tiroz tug'dirmoqda. Ayni vaqtda ularning insonga evolyutsion jihatdan yaqinligi primatlarda mavjud yuqumli kasalliklarning odamga o'tishi va tarqalishi xavfini kuchaytirmoqda.

Shu bois, tadqiqotchilar ichki organlarining fiziologik va anatomik tuzilishi insonnikiga ancha yaqin bo'lgan cho'chqalarning ayrim zotlari negizida inson uchun organlarning universal donorlarini yaratishni taklif qilmoqdalar.

Zamonaviy transplantologiya asoschisi Aleksis Korrel hisoblanadi va u bu boradagi tadqiqotlari uchun 1912-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Aynan Korrel inson a'zolarini ko'chirishning asosiy prinsiplarini ishlab chiqqan va amaliyotga kiritgan.

1967-yildan buyon jahon bo'ylab 40 mingdan ortiq yurak ko'chirish operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Shunday savol tug'iladi: A'zolari ko'chirish operatsiyalaridan so'ng inson o'rtacha qancha vaqt yashaydi? Ma'lum bo'lishicha, buyraklar ko'chirilganda 75% bemorlar, jigarda 75-80%, yurak ko'chirilganda esa 70% atrofida 1 yil va undan ortiq umr ko'radilar.

Hozirgi davrga kelib, olimlar yuzni to'liq ko'chirib o'tkazish ustida muntazam ish olib borayotgan bo'lsalar, boshni ko'chirish imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олейник С. Ф. Переливание крови в России и в СССР. — Киев., 1955.
2. Введение в биоэтику: Учеб. пособие / А.Я.Иванюшкин, В.Н. Игнатъев, Р.В. Коротких и др. - М.: Прогресс-Традиция, 1998. - 381 с.
3. Малеина М.Н. Человек и медицина в современном праве. М., 1995.
4. Мухамедова З.М. Этические проблемы биомедицинских культуральных исследований в области трансплантации органов и тканей. Материалы Первого Национального конгресса по биоэтике в Узбекистане. Т.USAID. 2005, с.39-41
5. Аронов Г.Е. Надежда для безнадежных // Проблемы медицины. — 2000. — №3(17). — С. 58-59.
6. Акопов В.И. Медицинское право в вопросах и ответах. — М.: ПРИОР, 2001. 208
7. Юдин Б.Г. Принципы биоэтики В книге Биоэтика: принцип, правила, проблемы. М.1998
8. В.И.Иванов, В.Л. Ижевская. Генетика человека: этические проблемы настоящего и будущего. Проблемы евгеники. Биомедицинская этика. под ред Покровского. М1997. 98 с.